

MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA TURKISTONDA IJTIMOY, IQTISODIY VA SIYOSIY HAYOT

Inobidinova Yorqinoy Komoldinovna

*Andijon viloyati Izboskan tumani 8-umumiy o'rtta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustamlakachilik davrida Turkistonning qiyin kechgan ijtimoiy, iqtisodiy, hamda siyosiy hayoti haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Turkiston, ijtimoiy-siyosiy hayot, ma'rifatparvarlik harakati, mustamlakachilik, Rossiya, sanoat.*

Xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining holis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglash jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Shunday ekan tarixni o'rganish va bilish zarur. Tarixsiz kelajak yo'q. Zero bu maqolada XX asrda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va albatta manaviy hayoti haqida so'z yuritishga harakat qildik. Turkiston bu davrda qanday ahvolda edi va mintaqada qanday siyosiyijtimoiy o'zgarishlar, jamoatchilik ishlari olib borilmoqda edi. Tarix–bu bizning kelajagimiz. Tarixni bilmasdan turib kelajakka yuz tutib bo'lmaydi. Chunki, kelajak bugundan, bugun esa tarixdan boshlanadi. Bulardan tashqari o'sha davr ma'rifatparvarlari qanday g'oyalar ostida birlashishni ilgari surishgan va o'lkani yangilash siyosati qay tarzda amalga oshirilganligi haqida ham so'z yuritishga harakat qildik. Turkiston xalqining kelajagi eng avvalo xalqning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bo'g'liq edi. Bu davrda Turkistonda millatning ma'naviy va aqliy o'sish salohiyatining oshirilishiga kuchli e'tibor qaratilgan edi. Chunki, ma'naviylik va ma'rifiylik Turkiston xalqining ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli va o'ziga xos bir xususiyati hisoblanardi.

XX asrning boshlanishi Turkiston o'lkasi tarixida eng jiddiy burilish yuz bergan davrlardan biriga to'g'ri keldi. O'tgan o'n yilliklar mobaynida o'lka bag'rida yetilgan jarayonlar ijtimoiy hayot yuzasiga qalqib chiqib, uning negizini qamrab olgan chuqur tanglikni ochib tashladi. Tashqi va ichki omillar tufayli vujudga kelgan bu jarayonlar o'z tabiatiga ko'ra bir xil emas, lekin o'zining yemiruvchilik ta'siri jihatidan yaxlit edi. Turkiston 1917-yilda muhim siyosiy o'zgarish arafasida turar edi. Mintaqa xalqlari Rossyaning 50 yillik mustamlakachilik zulmiga qarshi tinimsiz ravishda milliy ozodlik kurashini olib bordilar. Dastlab ma'rifatparvarlik harakati siyosatida vujudga kelgan

Jadidchilik Turkiston taqdiri hal qilinoatgan paytda o'zbek xalqini g'oyaviy jihatdan birlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi.

Turkistonni istilo qilishni boshlagan birinchi kundan boshlab Rossiya imperiyasi o'lkani boylik orttirish manbai deb bildi. Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, tub mohiyatiga ko'ra, mustamlakachilik siyosati bo'lib, u quyidagi maqsadlarni ko'zga oldirdi:

1. Rossiya sanoatini arzon xomashyo bilan inuntazam ta'minlab turish maqsadida paxtachilik, qishloq xo'jaligining sanoatbop mahsulot beradigan sohalarini ishlab chiqarishini kengaytirish va rivojlantirish.

2. Yer islohoti o'tkazish yo'li bilan natural xo'jalikning rivojlanish imkoniyatlarini cheklash.

3. Rus sanoati mahsulotlarini sotish uchun keng bozorlar yaratish.

4. Mahalliy hunarmandchilikning metropoliya to'qimachilik sanoati mahsulotlari bilan raqobat qiladigan sohalarini tugatish. Chor ma'murlari mazkur maqsadlarni amalga oshirish, o'lkada paxtachilik sanoati uchun xomashyo bazasini yaratish yo'lidagi muvaffaqiyatlarni ayamadi, Paxtaga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi natijasida, paxtachilik butun aholining kuchi va e'tiborini o'z girdobiga olgan sohaga aylanib ketdi. Paxta yetishtirishning kengayib borishi bilan xomashyo yetishtirish yo'liga olib olgan dehqonlarning ahvoli tobora og'irlashib bordi. Turkistonda 1890-1915-yillarda paxta yetishtirish 73 marta ko'paydi. Paxta maydonlarining kengayib borishi don, g'alla, ayniqsa, oziqovqat mahsulotlari masalasi va ta'minotida ham qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Bu vaziyatdan foydalangan rus ma'murlari chetdan keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga ham narxlarni o'zlari belgilay boshladilar. G'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish kamayib, ularning bozordagi narxlari muttasil ko'tarilib bordi. Masalan, 1890-yilning boshlarida bug'doy unining bahosi 5 marta oshdi.

XX asrning boshlarida Rossiyada nihoyatda og'ir sharoit va chukur inqiroz hukm surdi. Uning 1904 yilda Yaponiya bilan urushda mag'lubiyatga uchrashi va katta talofat kurishi mamlakatning iktisodiy xaletiga katta zarba berdi. Natijada ishchilarning xaleti og'irlashdi va haq-huquqlari inkor etildi. Minglab kishilar kamokka tashlandi, surgun qilindi. Ko'p yillar utmay Rossiya 1914 yilda daxshatli jahon urushiga tortildi. U bu urushda xam birin-ketin mag'lubiyatga uchrab katta talofatlarni ko'rdi. Butun mamlakatda ocharchilik va ommaviy kasalliklar kuzga tashlandi. Rossiyaning mushkul ahvoli uning mustamlakasi, xususan Turkiston zaminini xam kamrab oldi. Chor hukumati va kapitalistlar urush baxonasida ulkadan 41 mln. pud paxta, 3 mln. pud paxta yegi, 200 ming pud sovun, 70 ming ot, 12797 tuya, 300 ming pud gusht, 474 ming pud

balik, 270 arava, 1344 o'tov, miqdorda oziq-ovqat maxsulotlari, quruq mevalarni Rossiyaga olib ketishdi.

Shuningdek, 1915 yilda Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridan bir million kUy junatildi. Ma'lumki, Chor ma'muriyati ulkada galla ekinlarini kiskartirish xisobiga paxtachilikni rivojlantirgan. U gallani Rossiya ichkarisidan keltirib katta daromadni kulga kiritmoqda edi. Ammo urush tufayli gallani keltirish keskin kamaydi. Chunonchi, 1916 yildan Fargona viloyatiga keltiriladigan gallası12—14 mln. pudga kamaydi. Butun ulkada esa g'alla yetishmovchiligi 22 mln. pudni tashkil etdi. Oziq-ovkat, kiyim-kechak, gazlama va qurilish jixozlarini narxi kun sayin oshib bordi. Masalan gazlamalarning narxi 300—400, kiyim-kechaklarniki 200—300, kandniki 250, poyafzallarniki 300—400 foizga kutarildi. Fargona vodiysida ilgari 5 sum turadigan otning narxi 100—200, 5 sumlik qo'yniki — 30—35 sumga oshdi. G'alla va nonni narxlari juda kutarilib ketdi. Turli soliklar va yiginlarni ko'payishi 250 mexnatkash ommani axvolini yanada yemonlashtirdi. Yer soligi 1914 yildagi 6.859.021 sumdan 1916 yilda 14.311.771 sumga yetdi. Bir pud paxta tolasiga 2 sum 50 tiyindan kzt1imcha solik; olish joriy etildi. 1915 yil yanvardan boshlab, tub aholidan xarbiy xizmatni utamaganliklari evaziga daromadlardan kushimcha 21 foiz solik olish buyurildi. Urush tufayli paxta narxi ko'tarildi. Bundan paxtakorlar bir muncha foyda kurishlari mumkin edi.

Biroq chor hukumati to'qimachilik sanoat egalarining talabiga ko'ra paxtaning bozor narxini 30—31 sumdan 24,05 sumga tushirdi. Bu dehqonlarga katta ziyon keltirgan balsa, kapitalistlarni cho'ntagini to'ldirdi. Masalan, birgina Tver tukimachilik sanoati 1913—1914 yillarda paxtaning eski narxidan 1.893.000 sum foyda olgan balsa keyingi 1915—1916 yillarda u 9.931.000 sumga kutarildi. Dehqon ommasi banklar, firmalar va maxalliy sudxo'rlardan olgan qarzlari orqasida ham qashshoqlashgan edilar. Chor hukumatining Rossiyadan minglab kishilarni o'lkaga kirib keltirishi xam katta talofatlarni yuzaga keltirdi. Zero, tub aholining yerlarida «Rus posyolkalari» va shaxarlari paydo buldi. Davlat tomonidan maxalliy aholidan ko'p yerlar tortib olindi. Chunonchi: Sirdaryo viloyatida Fargona viloyatida Samarkand viloyatida Kaspiyorti viloyatida J a m i :Dehqonlar ochlikdan ulmaslik uchun banklar va sudxo'rlardan qarz olishga majbur bo'lganlar.

1916 yilga tegishli ma'lumotga ko'ra dehqonlarni bo'ynidagi qarzi 156.7 mln. sum xisoblanib undan 80 mln. sumi Fargona viloyatiga to'g'ri kelgan. Turkiston general-gubernatori A.N. Kuropatkinning tan olishicha faqat Fargona viloyati buyicha qarzlarni undirish uchun sudga berilgan shartnomalarning xajmi 16 mln. sumni tashkil etgan. Qarzlarni uza olmagan dexkonlarning yeri va umuman mol-mulki tortib olinib sotilgan.

Chorizm o'rnatgan va bosqinchi armiyaning nayzalariga tayanib o'lkani idora qilgan ma'muriy mustamlakachilik devonining cheklanmagan hukmronligi sharoitida kelgindi aholining barcha tabaqalari imtiyozli yashagani holda, iqtisodiy qoloqlik o'lkadagi mahalliy xalqning siyosiy huquqsizligi sababli ko'proq kuchayib bordi. Madaniyat sohasida tashqaridan tiqishtirilgan zamonaviylashtirish jarayoni milliy madaniy merosni barbod etish, xalqning yashovchan an'anaviy qadriyatlarini yo'q qilish xavfini tug'dirdi. Mustamlakachilik Turkiston xo'jaligining an'anaviy tarkibiga putur yetkazish bilan bir qatorda milliy asosda burjua yo'nalishida o'z ahvolini mustaqil ravishda o'zgartirish imkoniyatidan uni mahrum etdi, turg'unlikka, inqirozga, qoloqlikka mahkum qildi, ishsizlik o'sishiga, xalq turmush darajasi pasayib ketishiga ko'maklashdi. Bularning hammasi ijtimoiy hayotda nizo va mojarolarni ko'paytirdi. siyosiy beqarorlikni, kuchlar qarama-qarshiligini kuchaytirdi. Shu tariqa turkistonliklar birdamligiga muhim qadam qo'yildi: tarixda ilk bor umumturkiston miqyosida musulmonlar s'ezdi chaqirildi, unda xalqlarning muxtoriyatga qat'iy intilishi, o'z urf-odatlarini, turmush tarzini himoya qilishi aytildi; Bu manfaatlar ifodachisi - Turkiston musulmonlari markaziy Sho'rosi tashkil etildi. U Turkiston jamoatchiligi, ayniqsa uning ilg'or qismi tomoilidan Milliy markaz sifatida tushunildi.

Turkistonning ijtimoiy hayot maydoniga madaniy-ma'rifiy harakat sifatida kelgan va o'z oldiga eski maktab ta'limini isloh qilishni maqsad etib qo'ygan jadidchilik XX asrning boshlarida keng ijtimoiy harakat tarzida shakllandi. Jadidchilik turli tabaqalardan chiqqan fuqarolarni vujudga kelayotgan yosh milliy ziyolilar namoyandalarini, musulmon ruhoniylari ilg'or unsurlarini, savdogarlarni, diniy maktablar muallimlari va talabalarini, mayda amaldorlarni, ilg'or noshirlar, yozuvchilar, jurnalistlar va boshqalarni o'z saflarida birlashtirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abdulvohid Burhonov, Fayzulla Xo'jaev, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xo'jaev, Munavvar Qori, Polvonniyoz Xoji Yusupov, Tavallo jadidlarning eng taniqli namoyandalari edi.

Turkiston chor Rossiyasi tuzumining zulmi ostida qolgan bir paytda o'lkada Taraqqiyparvar guruhlar paydo bo'la boshlagan edi. Va bu holatni yuzaga chiqishini, paydo bo'lishini chor Rossiyasi xohlamas va bu yo'nalishning taraqqiyparvarlarini jazolar edi. Lekin Taraqqiyparvarlar xalqning g'oyaviy jihatdan birlashishi va Turkiston xalqining azaliy orzusini amalga oshirish g'oyalari ostida nazarga tusha olgan edi. Xulosa o'rnida yana shuni aytishimiz zarurki, Turkiston tuprog'ini, Turkiston o'lkasini, zaminini Yaratganning o'zi ham alohida mehr va ihlos ila bino qilgan, desak

mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, bu muqaddas zaminda kamol topgan yuzlab buyuk zotlar dahosi butun dunyo ma'naviyati va madaniyatini charog'on etib turgani bejiz emas, albatta

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
2. Азамхўжаев.С, Туркистон бирлиги учун. –Ўзбекистон.: “Фан” .1995. –15.б.
3. Жўраев.М., Нуриллин.Р., Камолов. Ўзбекистон мустамлалачилиги даврида. –Т.:”Шарқ”, -2000.
4. Зоҳидов.А, 1913-1914 йилларда Тўғоннинг Марказий Осиёга илмий сафари. Т.: “Фан”. 1995. –76.
5. Ражабов.Қ., Хайдаров. М. Туркистон тарихи. –Т.:Университет. 2002.
6. Kochetov E. Development strategy: geo-economic model // Security of Eurasia. - 2000. - N 1 (January - June). - pp.107-146.